

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.18/30.11.2022.T.153.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI
QOSHIDAGI BUXORO TABIIY RESURSLARNI BOSHQARISH
INSTITUTI**

MAXMUDOVA UMIDA ZAKIRDJANOVNA

**IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA AMUDARYO QUYI QISMI UCHUN
EKOLOGIK OQIMNI BAHOLASH**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan
oqilona foydalanish**

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFARATI**

Toshkent - 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Maxmudova Umida Zakirdjanovna

Iqlim o'zgarishi sharoitida Amudaryo quyi qismi uchun ekologik oqimni
baholash.....3

Махмудова Умида Закирджановна

Оценка экологического стока для нижнего течения Амударьи в условиях
изменение климата 23

Makhmudova Umida Zakirdjanovna

Environmental flow assessment for Amudarya river downstream under climate
change.....45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works49

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.18/30.11.2022.T.153.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI
QOSHIDAGI BUXORO TABIIY RESURSLARNI BOSHQARISH
INSTITUTI**

MAXMUDOVA UMIDA ZAKIRDJANOVNA

**IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA AMUDARYO QUYI QISMI UCHUN
EKOLOGIK OQIMNI BAHOLASH**

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan
oqilona foydalanish**

**TEXNIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFARATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.3.PhD/T4994 raqam bilan ro'yhatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb – sahifasida (www.ecoilim.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Isayev Sabirjan Xusanbaevich qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Juliyev Muxiddin Komilovich biologiya fanlari doktori, dotsent Ungalov Akmal Navruzovich texnika fanlari falsafa doktori
Yetakchi tashkilot	Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.18/30.11.2022.t.153.01 raqamli ilmiy kengashning «22» 08 2025-yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100043, Toshkent sh., Bunyodkor Shox ko'chasi, 7A-uy. Tel/Faks: (+99871) 277-89-63, e-mail: eco_nii@umail.uz).

Dissertatsiyasi (PhD) bilan Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (5 raqami bilan ro'yhatga olingan). Manzil: 100043, Toshkent sh., Bunyodkor Shox ko'chasi, 7A-uy. Tel/Faks: (+99871) 277-89-63, e-mail: eco_nii@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «12 08» kuni tarqatildi.

(2025-yil «12 08» dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)


B.A.Pulatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., dotsent
L.N.Samiev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash ilmiy kotibi, t.f.d., dotsent
Sh.O.Murodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda daryo ekotizimlarini barqaror saqlash uchun ekologik oqimni ta'minlashda suvdan tejamkorona foydalanish va bu borada zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida "...suv resurslaridan noto'g'ri foydalanishni tabiatga zararini kamaytirib, ko'proq qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarishni ta'minlash¹" belgilanganligini hisobga olsak, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarishda atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi ob'ektlarini rivojlantirish va modernizatsiyasini amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan suv resurslarini ekologik oqimni hisobga olgan holda boshqarish, suv va energiya resurslaridan samarali foydalanish, suv- va resurs-tejamkor sug'orish texnologiyalarni ishlab chiqish, kam miqdorda suv resurslaridan foydalanib atrof-muhitga yetkaziladigan zararni kamaytirish, masofadan zondlash va geoaxborot texnologiyalariga asoslangan usullarini tadbiiq etish asosida foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda atrof-muhit muhofazasi va ekotizimlar muvozanatini saqlashdagi ekologik oqimni ta'minlashda suvdan tejamkorona foydalanish va resurstejamkor texnologiyalarining yangi ilmiy yechimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, suv resurslarini boshqarishda va samarali foydalanishda ekologik oqimni inobatga olish, turli xil texnologik yechimlar, iqlim o'zgarishi sharoitida daryo havzalarida suvni taqsimlash sharoitida ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish nuqtai nazardan turli xil yechimlar berish bo'yicha ustuvor yo'nalishlardan hisoblanmoqda. Bu borada, global iqlim o'zgarishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqlarining o'sishi, ularning suvga bo'lgan talabi yil sayin oshib borishi natijasida suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchayib borishini inobatga olgan holda ekologik oqimni baholash hamda uni o'simliklarning o'sish fazalariga ko'ra biomassasiga ta'sirini asoslashga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamiz ilmiy tadqiqot markazlarida ekologiya va atrof- muhitni muhofaza qilish sohasida texnologik yondashuvlarni qo'llagan holda, jumladan, geoaxborot tizimlari va masofadan zondlash texnikalari asosida samarador baholash uslublarini ishlab chiqish, yaratish va ularni qo'llash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida « milliy iqtisodiyotning jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish²» bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, global iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi sharoitida Amudaryo daryosining quyi deltasining ekotizim turg'unligini asosiy indikatorini hisoblangan biomassa qoplami qiymatlariga mavjud suv resurslari taqsimotidagi kritik ekologik

¹ BMT ning Oziq ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO). <https://www.fao.org/sdg-progress-report/2020/en/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "O'zbekiston Respublikasini Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni

oqim qiymati hamda iqlim ta'siri ostidagi bug'lanish (evapotranspiratsiya) miqdorini hisoblash uslublarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yilning 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171-sonli qarori, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-sonli "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi", 2019-yil 10-oktyabrdagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5863-son farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V - "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Suv resurslari mavjudligi hamda atrof-muhitni muhofaza qilishdagi ekologik oqimni baholash jarayonlarini S.SH. Mirzayev, V.A.Duxovniy, G.Xasanxanova, M.A.Yakubov, U.V.Abdullaev, V.Talskix, R.Taryannikova, I.Joldasova, T.Xamzina, R.Ibragimov, N.Agalseva, V.E.Chub, A.G.Savitskiy, S.Ravlovskaya, S.Lyubimova, R.Temirbekov, E.A.Muxina, R.Umarov, Yu.M.Denisov, A.T.Salohiddinov, A.X.Karimov, X.Gaffarov, M.K.Juliyev, A.N.Ungalov va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Daryo havzasida o'simliklarning turi, iqlim, evapotranspiratsiya omillarini ekologik oqimga ta'sirini o'rganishda M.Schluter, C.Siderus, D.Jacob, M.Acreman, M.Dunbar D.McKinney, H.Lieth, R.Tharme'lar atrof-muhitni muhofaza qilishdagi ekologik oqimni baholash jarayonlarini hamda A.Arthington, J.King, M.Finn, S.Jackson, Y.Zhang, T.Grantham, J.Olden, A.T.Salohiddinov, A.X.Karimov, X.Gaffarov, M.K.Juliyev, A.N.Ungalov va boshqa olimlar iqlim, evapotranspiratsiya omillarini ekologik oqimga ta'sirini o'rganishda keng qamrovli izlanishlar olib borganlar hamda ma'lum darajada ijobiy natijalarga erishganlar.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning tahlili hozirgi kunda ekinlarning biomassasi sig'imidan kelib chiqadigan evaporatsiya va transpiratsiya qiymatlari, iqlim o'zgarishi ta'sirlari, suv resurslari taqsimotidagi kritik ekologik oqim qiymati, hamda iqlim ta'siri ostidagi bug'lanish miqdorini hisoblash uslublarini takomillashtirish kabi masalalar yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti (MTU) Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №1."Global iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslarni oqilona boshqarish, ulardan suv tejamkor texnologiyalar asosida

foydalanish va sug'oriladigan yerlarning ekologik-meliorativ holatini yaxshilashning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sug'oriladigan yerlarni suvga bo'lgan talabini va evapotranspiratsiyani inobatga olgan holda Amudaryo quyi qismi uchun ekologik oqimni baholash usulini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Daryolarda ekologik oqimning baholash va ularni hisoblash usullarini amaliy va eksperimental natijalar tahlili;

Daryo havzasida suvga bo'lgan talabini, me'yorini, evapotranspiratsiyani inobatga olgan holda ekologik oqimning baholash usulini takomillashtirish;

Amudaryo quyi qismi uchun suvni taqsimlashdagi ekologik oqimni aniqlash;

Amudaryo quyi qismi uchun "Indicators of Hydrological Assessment (IHA)" usulini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida quyi Amudaryo (Qoraqalpog'iston Respublikasi), iqlim o'zgarishi, evapotranspiratsiya, qishloq xo'jaligi, ekologik oqim, ekologik ko'rsatkichlar olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, iqlim omillari, Tuyamo'yin suv omboridan tashlanadigan suv miqdori, ekinlarning biomassasi, geoaxborot tizimlari va texnologiyalari, ekinlarni turiga va rivojlanish fazalariga ko'ra chiqadigan evapotranspiratsiya miqdori hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ekologiya va gidrologiyada umum qabul qilingan usullardan hamda geografik axborot tizimi asosida yerdan foydalanish va yer qoplami o'zgarishini baholash, sun'iy yo'ldosh tasvirlari, normallashtirilgan farq vegetatsiya indeksi (NDVI) va biomassa qoplami indeksi (LAI), bashorat qilish, havzadagi eroziya tahlili, suv sathi o'zgarishini hisoblash bashoratlash hamda dala tajribalari natijalarini qayta ishlash, matematik statistika va delta yondashuv usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Amudaryo quyi qismi uchun suvlilik (Q_{max} , Q_{min}) yillarni inobatga olgan holda suv miqdorini taqsimlashda suv oqimini 60% i ta'minlanish orqali ekologik oqimni hisoblash usuli takomillashtirilgan;

Tuyamo'yin suv omboridan tashlanadigan suv oqimini hisobga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi yerdan foydalanishi va biomassaning (LAI) kengayishi bilvosita ET_0 tezligini asta-sekin tezlashtirgani ($R \approx -0,6$) biomassaning suvga bo'lgan talabining oshishini inobatga olib, ekologik oqim hisoblash usuli takomillashtirilgan;

Daryo havzasida suv miqdori, taqsimotini, bug'lanishini, suv balansini va atrof-muhit holatini inobatga olib Amudaryo quyi qismi uchun "Indicators of Hydrological Alterations (IHA)" modeli integratsiya qilingan;

Amudaryo quyi deltasida ekinlarni sug'orish va inson faoliyatiga yo'naltirilgan suv taqsimoti ortishini inobatga olib daryo havzasida ekologik oqim barqarorlikni ta'minlash uchun minimal ekologik oqim 350-400 m³/s dan kam bo'lmasligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Amudaryo quyi qismi misolida, iqlim o'zgarishining daryo havzalari oqimi va atrof-muhitga potensial ta'sirini sabablari aniqlangan;

Amudaryo quyi qismida oqim dinamikasini modellashtirish uchun yerdan foydalanish va o'simlik qoplami xaritasi ishlab chiqilgan va kelajak uchun suv oqim miqdori va ekologik oqim miqdorlari baholangan;

Iqlim o'zgarishning Amudaryo quyi qismidagi oqimi va atrof-muhitga bo'lgan potensial ta'sirni baholash va bashorat qilish uchun kuzatuv stansiyalar tarmog'i yetarli bo'lmagan havzada cheklangan ma'lumotlarga ega bo'lgan mintaqalarda muqobil ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan maqsadda sun'iy yo'ldosh tasvirlari, masofadan zondlash ma'lumotlari va geoaxborot (GAT) texnologiyalarini boshqarishda tezkor qarorlar qabul qilish uchun muhimligi aniqlangan;

Amudaryo quyi qismidagi havzasida suv dinamikasidagi o'zgarishlarni bashoratlashning umumlashtirilgan usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ishlanmalarining olingan qiymatlarga muvofiqligi, taqqoslashda hisoblangan qiymatlarning dala tajribalari qiymatlariga yaqinligi, shuningdek, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati iqlim o'zgarishi sharoitida Amudaryo daryosining quyi qismida taqchil suv resurslarining miqdor ko'rsatkichlarini ko'p yillik o'zgarish dinamikasi ekologik oqimni ta'minlashga ta'siri zamonaviy GAT va masofadan zondlash texnika va modellaridan foydalanib ishlab chiqilgan hamda iqlim ta'sirida vujudga keladigan evapotranspiratsiyani hisoblash usullari hisoblangan. Amudaryo quyi qismi uchun daryo havza hududida joylashgan ekinlarni biomassa holatini va yerdan foydalanish turlarini aks ettiruvchi raqamli ekologik xaritalar ishlab chiqilgan. Ekologik oqimni ta'minlovchi Tuyamo'yin suv omboridan kiruvchi va tashlama suvlar oqimiga bog'liqligi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Amudaryo quyi qismi uchun suv taqsimotini innovatsion masofadan zondlash va takomillashgan GAT texnologiyalarini qo'llab, ekologik oqimning kritik qiymatlarini baholashni aks ettiruvchi yuqori aniqlikka ega metodologiyalari asosida ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Iqlim o'zgarishi sharoitida Amudaryo quyi qismi uchun ekologik oqimni baholash tadqiqoti bo'yicha olingan natijalar asosida:

Amudaryo quyi deltasida ekinlarni sug'orish va inson faoliyatiga yo'naltirilgan suv taqsimoti ortishini inobatga olib havzada ekologik oqim barqarorlikni ta'minlash uchun minimal ekologik oqim hisoblab chiqilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2020 yil 21 avgustdagi 02/023-2611-son ma'lumotnomasi). Natijada, Amudaryo quyi qismi uchun 350- 400 m³/s dan kam bo'lmasligi aniqlangan;

Ekologik oqimni kritik qiymati suv iste'moliga bog'liq holda Qoraqalpog'iston Respublikasining asosiy iqtisodiy sektori hisoblangan qishloq xo'jaligi faoliyati uchun hisoblanib joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi

vazirligiga 2023 yil 18 sentyabrdagi №01/010-3401 sonli ma'lumotnoma). Natijada Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida atrof-muhit muhofazasi hamda ekotizimlarni turg'unligini 90% miqdorda ta'minlashdagi suv iste'moli miqdori 60% ekanligi isbotlangan;

Daryo havzasida suv miqdori, taqsimotini, bug'lanishini, suv balansini va atrof-muhit holatini inobatga olib Amudaryo quyi qismi uchun "Indicators of Hydrological Alterations (IHA)" modelini integratsiya qilinib, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatining sug'oriladigan maydonlariga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligiga 2023 yil 18 sentyabrdagi №01/010-3401 sonli ma'lumotnoma). Natijada Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatlarining sug'oriladigan maydonlarida suv miqdori hisoblab chiqilib, Amudaryo quyi qismi uchun daryoda ekologik oqim hisoblangan va taqsimoti modellashtirib suv taqsimotini tezkor aniqlashga imkoniyat yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro, respublika va universitet miqyosidagi anjumanlarda muhokama qilingan va ma'qullangan, jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokomadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori ilmiy darajasini (PhD) olish uchun tayyorlangan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120- betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda ob'ekt va predmetlari shakllantirilib, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ishonchligi bayon qilingan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyatlari keng ochib berilib, tadqiqot natijalarini joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Ekologik oqimni tabiiy-iqlim sharoitlari o'zgarishiga ta'sirini baholashning ilmiy-amaliy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida ekologik oqimni tabiiy-iqlim sharoitlari o'zgarishiga ta'sirini baholash uchun foydalaniladigan manbalar va uslubiyatlar haqida batafsil yoritilgan.

Daryolarning oqimga bo'lgan talablarini aniqlash konsepsiyasi daryo ekotizimining yaxlitligini saqlab qolgan holda daryoning oqim rejimini tabiiy holatdan qanchalik o'zgartirish mumkinligini aniqlash zaruriyatidan kelib chiqadi. Bunday talablar suv iste'molidagi oqimni baholash orqali hisoblab chiqiladi, uning mohiyati suv resurslarini ma'lum bir kerakli darajada ushlab turish uchun yilning turli vaqtlarida tartibga solinadigan daryolar tizimida qolishi kerak bo'lgan suv

miqdorini aniqlashdan iborat. Asl tabiiy oqim rejimi ko'pincha daryo biotasini saqlash uchun zarur deb hisoblangan oqim rejimining elementlarini aniqlash uchun qo'llanma sifatida ishlatiladi. Dunyo bo'ylab turli xil suv turlari va daryo ekotizimlarining tarkibiy qismlari uchun suv iste'molidagi oqimlarni baholash uchun bir qator metodologiyalar ishlab chiqilgan. Odatda qo'llaniladigan metodologiyalar to'rt toifaga bo'linadi: tarixiy oqimlarni qayd etish metodologiyalari, gidravlik reyting metodologiyalari, yashash joylarini baholash metodologiyalari va yaxlit metodologiyalar. Tarixiy oqim qaydlari, gidravlik reyting va yashash joylarini baholash metodologiyalari asosan baliq turlarining alohida turlari yoki birlashmalarining talablarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan. Ular to'g'ridan-to'g'ri qirg'oq o'simliklariga taalluqli emasligi adabiyotlarda to'liq ko'rib chiqilgan. Dunyodagi daryolarning ekologik oqimiga bo'lgan talablarini dastlabki baholash asosan baliq ehtiyojlariga qaratilgan. Sohil bo'yidagi o'simliklar, daryolar ekologiyasi va qirg'oq barqarorligini saqlashda hal qiluvchi rol o'ynashi yaxshi isbotlangan bo'lsada, ayrim o'simliklar turlarining gidrologik talablari bir nechta tadqiqotlarda ko'rib chiqilgan. Daryo o'simliklari ko'pincha turlar to'plamini o'z ichiga olgan yagona ob'ekt sifatida qaraladi. Ayrim turlarga va ularning suv va quruqlik muhiti o'rtasidagi gidrologik gradiyent bo'yicha o'ziga xos ekologik afzalliklariga kam e'tibor berilgan. Dunyoda qirg'oq o'simliklarini hisobga olgan holda ekologik oqimni baholash bo'yicha tadqiqotlar odatda ko'p tarmoqli yaxlit ekotizimlar yondashuvi asosida tadqiqotlar olib borilgan.

Markaziy Osiyo davlatlarida bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarni tahlili asosidan Amudaryo va Sirdaryo havzasi bo'yicha oladigan bo'lsak, tadqiqotlar asosan daryo oqimini boshqarish bo'yicha juda ko'p ishlar bajarilgan. Xususan, Amudaryo deltasida daryo oqimini gidravlik va gidrologik boshqarishda V.N.Goncharov, A.N.Gostunskiy, N.V.Grishanin, K.I.Rossinskiy, I.A.Kuzmin, V.S.Altunin, V.S.Lapshenkov, V.M.Lyaxter, J.A.Kunj, F.M.Holly, A.Verwey, V.K.Debolskiy, K.SH.Latipov, A.M.Arifjanov, M.R.Bakiev, SH.Murodov, F.X.Xikmatov, I.A.Axmedxodjaeva, M.Ikromova va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Ammo Amudaryo deltasida daryo oqimini boshqarishda sug'oriladigan yerlarni suvga bo'lgan talabini va evapotranspiratsiyani hisobga olgan holda ekologik oqimni boshqarish bo'yicha to'liq tadqiqotlar olib borilmagan.

Shu boisdan Iqlim o'zgarishi sharoitida Amudaryo quyi qismi uchun ekologik oqimni baholash muhimligi asoslangan.

Olib borilgan tahlillar asosida dissertatsiyaning maqsad va vazifalari belgilandi.


Dissertatsiyaning «**Ekologik oqimni baholashda Amudaryo quyi qismida tabiiy-geografik sharoitlar**» deb nomlangan ikkinchi bobida Amudaryo quyi qismining tabiiy geografik sharoitini hisobga olgan holda ekologik oqimni baholash haqida ma'lumot berilgan. Bunda Qoraqalpog'iston Respublikasining geografik o'rni, geologik va geomorfologik sharoiti, iqlim va suv resurslari, tuproqlari haqida keng yoritilgan.

Amudaryo deltasi ekotizimlarining hozirgi zaifligi baholangan va iqlim o'zgarishi sharoitida botqoq ekotizimlarini ekologik oqim bilan ta'minlash uchun kelajakdagi boshqaruvning turli variantlari uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlar tahlil qilingan. Zarur ekologik oqimlarni ta'minlash uchun qishloq xo'jaligi va delta ekotizimlari o'rtasida suvdan foydalanishni yaxshiroq muvozanatlash uchun muqobil boshqaruv variantlarini tanlash uchun asos bo'ladi. Shuningdek, ekologik oqimni tabiiy iqlim sharoitlari o'zgarishiga ta'sirini baholash uchun foydalaniladigan manbalar haqida to'liq ma'lumot berilgan hamda ekologik oqimni tabiiy – iqlim sharoitlari o'zgarishiga ta'sirini baholash iqlim va suv resurslari bo'yicha ma'lumotlar o'rganilgan.

Dissertatsiyaning «Amudaryo quyi qismi uchun ekologik oqimni baholashda gidrologik o'zgarishlar ko'rsatkichlari modelini ishlab chiqish» deb nomlangan uchinchi bobida Amudaryo quyi qismi uchun gidrologik o'zgarishlar ko'rsatkichlari modelini ishlab chiqish maqsadida avvalo tadqiqot uslublari bilan tanishib chiqilgan.

Gidrologik baholash ko'rsatkichlari (IHA) modeli. IHA daryo oqimidagi o'zgarishlarni tarixiy ma'lumotlarga asoslanib tahlil qilishga mo'ljallangan vositadir. Suv oqimidagi o'zgarishlarning daryo ekotizimlariga ta'sirini baholashga qaratilgan. Ushbu dastur oqimning miqdori, vaqti, davomiyligi, takrorlanishi va o'zgarish tezligi kabi ko'rsatkichlarni baholash asosida ekologik ta'sirlarni aniqlashga yordam beradi.

Ushbu dasturni amalga oshirishda turli xil ma'lumotlarni yig'ish jarayoni amalga oshiriladi (1-rasm). Keyingi bosqichda suv resurslari tizimli modellashtirish yo'li bilan suv bilan bog'liq jarayonlar tahlil qilinadi. Bu jarayon qaror qabul qilish jarayonlari uchun asos bo'ladi.



1-rasm. IHA blok-sxemasi

Bir vaqtning o'zida, iqlim, oqim va suvdan foydalanish ma'lumotlari yig'ilib, gidrologik simuliyasiya (bazaviy ssenariy) modelini shakllantiradi. Shuningdek,


yerdan foydalanish va oqimni boshqarish bo'yicha ma'lumotlar ekologik boshqaruv ssenariylari modeliga kiritiladi. Bu ikki yo'nalish IHA modelida kesishadi va IHA indeksi asosida gidrologik o'zgarishlar baholanadi.

Gidrologik simulyasiya natijalari "boshqa boshqaruv indeksi" bilan ham bog'lanadi. Bu jarayonda GAT (geoaxborot tizimlari) ham foydalaniladi va nihoyat, olingan natijalar boshqaruvni rivojlantirish bo'yicha takliflarni tayyorlashda qo'llaniladi.

Shunday qilib, sxema ma'lumotlarni yig'ishdan tortib, boshqaruv takliflarini ishlab chiqishgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi va har bir qism boshqalari bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi.


O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligidan olingan 1990 hamda 2020 yillar oralig'idagi Tuyamo'yin suv omboriga kiritim suvlari hamda Amudaryo quyi deltasiga o'tadigan tashlama suvlari IHA modelida tahlil qilindi.

30 yillik taxlil natijasida ko'rishimiz mumkinki, kiruvchi oqimning dinamik intensivligi pasayib ketgan. Yillik o'rtacha oqim 1990-yillarda 950 m³/s ni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatkich 300-350 m³/s ga tushib ketgan. Bu esa suvsizlik muammosini yanada kuchaytirishi mumkin (2-rasm).




2-rasm. Tuyamo'yin suv omboriga kiritim suvlari oylik kesimidagi chiziqli regression tahlil natijalari (1990-2020 yillar)

Amudaryo quyi deltasiga moslashtirilgan IHA dasturida ushbu besh turdagi oqimlar (Oylik past oqimlar, ekstremal past oqimlar, ekstremal yuqori oqimlar, kichik suv toshqinlari, katta suv toshqinlari) ham kiritilgan. 1990-yillarda suv oqimi maksimal 4500-5000 m³/s ga etgan hollarda, 2020-yilga kelib katta suv toshqinlari deyarli kuzatilmaydi (3-rasm)..




3-rasm. Tuyamo‘yin suv omboriga kirim suvlari (1990-2020 yillar)

Xuddi shunday endi gidrouzeldan chiqadigan tashlama suvlarining 30 yillik tahtliga keladigan bo‘lsak, Yillik o‘rtacha oqim 1990-2005 yillar davomida 500-600 m³/s atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2010-2020 yillar oralig‘ida bu ko‘rsatkich 300 m³/s gacha pasaygan (4- rasm).



4-rasm. Tuyamo‘yin suv omboridan Amudaryo quyi deltasiga tashlama suvlarini oylik kesimidagi chiziqli regression tahlil natijalari (1990-2020 yillar)


2000-yildan so‘ng maksimal oqim 3500 m³/s dan oshib ketmagan, 2010- yildan keyin esa 1000 m³/s atrofidagi past oqimlar ko‘p uchramoqda (5- rasm).



5-rasm. Tuyamo‘yin suv omboridan Amudaryo quyi deltasiga tashlama suvlari (1990-2020 yillar)


Amudaryo quyi qismi uchun suvni barqaror taqsimlashdagi ekologik oqimni aniqlash. Amudaryo quyi deltasi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) hududiga ajratilgan ko‘p yillik suv limiti miqdori va amalda foydalanilgan suv miqdori tahlil qilindi.

Keltirilgan tahlil natijalari asosida ajratilgan suv limiti tahlilini ko‘rish mumkin (6-rasm). Tuyamo‘yin suv omboridan chiqadigan tashlama suvlarga bog‘liq holda yillar davomida (2000-2020 yillar) bir muncha dinamik xususiyatga ega bo‘ldi. Eng ko‘p limit mos ravishda 2005 yilda, 8350 mln. m³ Eng kam limit miqdori 2020 yilda 5370 mln. m³ Amaldagi suv iste‘moli qiymatlari eng yuqorisi huddi suv limiti kabi 2005 yilda, 8230 mln. m³ Amaldagi eng kam suv iste‘moli 2010 yilda, 4420 mln. m³ ni hosil qildi.



6-rasm. Amudaryo quyi deltasi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) uchun ko‘p yillik (2000-2020 yillar) ajratilgan suv limiti hamda amaldagi suv iste‘moli tahlili grafigi


Hududda suv taqsimotini belgilashda 90% lik maqbul suv limitini ta'minlash uchun Amudaryo quyi deltasi hududiga tushadigan oqim miqdori 60% dan kam bo'lmash kerak deb hisoblandi (7-rasm). Aynan shu holatda daryo ekotizimlari yaxshi xolatda saqlanadi.



7-rasm. Amudaryo quyi deltasi hududi uchun suv taqsimoti limitini belgilashdagi standart ekologik oqim qiymati grafigi

Dissertatsiyaning «Amudaryo quyi qismida evapotranspiratsiya va biomassaga asoslangan ekologik oqimni baholash» deb nomlangan to'rtinchi bobida Amudaryo quyi qismida evapotranspiratsiyaga asoslangan ekologik oqimni baholash haqida to'xtalib o'tilgan. Bunda, birinchi bo'lib, O'zbekiston Hidrometeorologiya xizmati markaziga qarashli Amudaryo quyi deltasi hududiga yaqin bo'lgan 10 ga yaqin meteorologik stansiyadan havo harorati va yog'ingarchilik haqidagi 30 yillik (1990-2020) iqlimiy ma'lumotlari tahlili amalga oshirilgan.

Ishlab chiqilgan blok-sxema Q–Q grafik tahlili jarayonini tasvirlaydi. Ushbu tahlil ikki turli ma'lumot to'plamining taqsimotlari o'zaro qanchalik mos kelishi yoki farq qilishini aniqlashda qo'llaniladi. Bu yerda havo harorati va yog'ingarchilik ma'lumotlari olinadi (8-rasm).



8-rasm. Q–Q grafik tahlili blok-sxemasi


Birinchi qadam – har ikki ma'lumotlar to'plamini alohida normallashtirishdir. Bunda har bir to'plamning o'rtacha qiymati va standart og'ishidan foydalaniladi.

Ikkinchi qadam – har ikki normallashtirilgan ma'lumotlar uchun kvantillarni hisoblashdir. Bunda ma'lumotlar ehtimollik qiymati (p) bo'yicha saralanadi va har bir ehtimollikka mos keluvchi kvantillar aniqlanadi.

Uchinchi qadam - har ikki ma'lumotlarning kvantillari grafikda aks ettiriladi. Bu holda, havo haroratining normallashtirilgan kvantillari (gorizontal o'qda) va yog'ingarchilikning normallashtirilgan kvantillari (vertikal o'qda) bir-biriga nisbatan tasvirlanadi:


To'rtinchi qadam – grafikni talqin qilishdan iborat. Agar ikki o'zgaruvchi o'zaro taqsimot shaklida o'xshash bo'lsa, grafikdagi nuqtalar taxminan to'g'ri chiziq atrofida (diagonal chiziq bo'ylab) joylashadi. Agar nuqtalar bu chiziqdan sezilarli darajada og'sa, bu harorat va yog'ingarchilik taqsimotlarining bir-biridan shaklan farqlanishini ko'rsatadi (masalan, qiyshilik, cho'zilish yoki quyruq qismining og'irligi bo'yicha).

1990 yildan 2020 yilgacha Amudaryo quyi deltasiga (Qoraqalpog'iston Respublikasi) qarashli meteostansiyalarida qayd etilgan uzoq muddatli havo harorati kuzatuv ma'lumotlari natijasida anomal isish deyarli kuzatilmagan, anomal sovish jarayonlari 2006 va 2008 yillarning yanvar oyiga to'g'ri kelib, bunda oylik o'rtacha harorat $-14\text{ }^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qildi. Bunday tahlilni quti diagrammasi (box plot) ko'rishiga keltirib, oylik xaqiqatga yaqinroq hisoblangan mediana parametriga ko'ra o'rtacha ko'p yillik havo harorati qiymatlari aniqlandi (9-rasm).



9-rasm. Amudaryo quyi deltasida bo'ylab 1990-2020 yillar oralig'idagi havo harorati qaydlari

Atmosferik yog'ingarchilikni ko'p yillik ma'lumotlariga ko'ra, anomal yog'ingarchilik ham 30 tadqiqot yili davomida uncha kuzatilmadi, anomal yog'ingarchilik miqdori 1991 yilning may oyiga to'g'ri kelib maksimal 101 mm ni hosil qildi. Bunday tahlilni quti diagrammasi (box plot) ko'rishiga keltirib, huddi havo harorati tahlili singari mediana parametriga ko'ra o'rtacha oylik yog'ingarchilik yig'indisi qiymatlari aniqlandi (10-rasm).




10-rasm. Amudaryo quyi deltasi hududi bo‘ylab 1990 2020 yillar oralig‘idagi yog‘ingarchilik qaydlari

Iqlim omillariga asoslangan evapotranspiratsiya (ET_0) miqdorini hisoblash. Evapotranspiratsiya (keyingi o‘rinlarda - ET) atmosfera va yer yuzasi o‘rtasidagi energiya va suv muvozanatining muhim bo‘linmalaridan biri hisoblanadi. ET tuproq, atmosfera va o‘simliklar o‘rtasida energiya va suv almashinuvi va iqlim omillari bilan o‘zaro ta’sirlashganda sodir bo‘ladigan jarayondir.

ET_0 - hisoblashda foydalanilgan ko‘p yillik (2000-2020) quyosh radiatsiyasi haqidagi ma’lumotlar Milliy quyosh radiatsiyasi ma’lumotlar bazasi - The National Solar Radiation Database (NSRDB) dan, Quyosh burchaklari haqidagi ko‘p yillik (2000-2020 yillar) ma’lumotlar Landsat 4-9 Level-1 mahsulotlarida burchak koeffitsienti fayli (“_ANG.txt”) tomonidan olindi.

Amudaryo quyi deltasi dunyoning tipik qurg‘oqchil hududida joylashganligi sababli, o‘zining geografik joylashuvi tufayli quyosh nuri juda ko‘p. Amudaryo quyi deltasida o‘rtacha quyoshli kunlar yiliga 260 kunning tashkil qiladi.

MODIS ma’lumotlar to‘plamidan quyosh radiatsiyasini maskalash metodologiyasi birinchi navbatda Amudaryo quyi deltasi misolida amalga oshirildi. Ushbu ko‘rsatkich ET_0 hisoblashda muhim o‘rin tutganligi sababli, Amudaryo quyi deltasiga keladigan o‘rtacha oylik quyosh radiatsiyasini grafigi yaratilindi (11-rasm).



11-rasm. Amudaryo quyi deltasi hududlariga 2001-2021 yillar oralig‘idagi tushgan quyosh radiatsiyasi


ET_0 miqdori Hargreaves-Samani (HS) formulasiga binoan aniqlandi. HS tenglamasi ET_0 ni hisoblash uchun faqat quyosh nurlanishi, maksimal havo harorati

va minimal havo harorati bilan kuzatuvlarni kamaytirishni talab qiladi:

$$ET_{oHS} = 0.0135 \cdot k_{Rs} \cdot R_a \sqrt{T_{max} - T_{min}} \cdot (T_a + 17.8)$$

bu yerda: 0,0135 - AQSHdan Xalqaro birliklar tizimiga o'tkazish koeffitsienti; k_{Rs} - radiatsiyani sozlash koeffitsienti (odatda, $k_{Rs} = 0,17$ qo'llaniladi); R_a - kunlik quyosh radiatsiyasi; T_a - o'rtacha kunlik havo harorati.

2001 yildan 2021 yilgacha ET_{oHS} yondashuvidan foydalangan holda hisoblangan o'rtacha oylik ET_0 qiymatlari ko'rsatilgan (12-rasm).




12-rasm. Amudaryo quyi deltasi hududlariga 2001-2021 yillar oralig'idagi ET_0

ET_0 baholari ekinlarning o'rtacha oylik ET_{oHS} qiymatlari o'rtasidagi korrelyatsiya yetarlicha yuqori bo'lib, R_2 2001-yilda 0,77, 2011 yilda 0,82 va 2021-yilda 0,79 ni tashkil etdi va statistik ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkich sifatida r-qiymatlari ancha past edi ($r < 0,01$). ET_{oHS} RMSE 2001 yilda $\sim 0,06$, 2011 yilda $\sim 0,07$ va 2021 yilda $\sim 0,14$ ni tashkil etdi. ET_{oHS} usuli qurg'oqchil kontinental iqlim sharoitida mintaqaviy ET_0 ni baholash uchun qo'llaniladi. Ushbu tadqiqotda ET_0 baholashni muvaffaqiyatli bajarish uchun HS usulining asosiy afzalligi sifatida model natijalarini talab qilmasdan to'g'ridan-to'g'ri tenglama orqali yechish imkoniyatini taqdim qildi. Agar ET_0 ni hisobga olgan holda sug'orish o'zbek suv iste'molchilari tomonidan keng qo'llanilsa, u mintaqaning qishloq xo'jaligi va ekologik holatini rivojlantirish va tiklash uchun o'tkazilishi mumkin bo'lgan katta suv tejashni aks ettirishi mumkin.

Amudaryo quyi qismi uchun ko'p yillik yerdan foydalanish xaritalarini geoaxborot tizimlari yordamida ishlab chiqish. Ushbu tadqiqotda ikkilamchi ma'lumotlar sifatida Amudaryo quyi deltasi hududi maydonlarining o'zgarishi va yerdan foydalanish xaritalarini fazoviy tahlil qilishda har bir tahlil yili uchun 20 ta sun'iy yo'ldosh tasvirlari (2000–2020) dan foydalanilgan. Sun'iy yo'ldosh tasvirlarining sensori sifatida Moderate Resolution Imaging Spectroradiometer (MODIS) va Landsat 8-9 modullaridan foydalanildi. So'nggi o'n yilliklar davomida masofadan zondlash orqali o'simlik qoplamasi ma'lumotlarining tez to'planishiga muvofiq, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlaridan foydalangan holda yer qoplamining o'zgarishi (EQO') ning mintaqaviy va global ET ga potensial ta'siri baholanadi, ammo bu turdagi tekshiruvlar kamdan-kam hollarda bo'ladi. EQO' ko'pincha biologik va geografik o'simlik qoplamining tarqalishida o'zgarishlarga olib keladigan tabiiy jarayonlar (masalan, iqlim o'zgarishi va tabiiy buzilishlar)

natijasida ko‘rish mumkin. O‘simlik turi, biomassa qoplami, daraxtlarning o‘shish yoshi va o‘tish matritsasi EQO‘ xususiyatlari sifatida tasniflanishi mumkin.


Barg maydoni indeksi (keyingi o‘rinlarda LAI) atrof-muhit va qishloq xo‘jaligi tadqiqotlarida dominant ko‘rsatkich hisoblanadi. LAI o‘simliklarning o‘shishini kuzatish va qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtirishda hosilni optimal boshqarish va prognoz qilish uchun keng qo‘llaniladi. LAI fotosintez jarayonlariga, o‘simlik biomassalaridan transpiratsiyaga, evapotranspiratsiyaga va hosildorlikka bevosita ta’sir qiladi. Ushbu tadqiqotda 2001-2021 yillarga mo‘ljallangan Amudaryo quyi deltasining qayta tasniflangan MODIS yerdan foydalanish-yer qoplami (EFEQ) xaritasi tuzildi (13-rasm).



13-rasm. Amudaryo quyi deltasini (Qoraqalpog‘iston) hududining 2001- 2021 yillardagi EFEQ xaritasi

Amudaryo quyi deltasini asosiy suv oqimi bilan ta’minlaydigan Tuyamo‘yin suv omboriga kiradigan va uning gidrouzelidan tashlanadigan suvlar miqdori IHA modelidan foydalanilgan holda chuqur tahlil qilingan ma’lumotlar natijalari dissertatsiyaning 3.3-bo‘limida keltirilgan.

Shu asnoda, mazkur tahlilning mantiqiy davomi sifatida yuqoridagi yerdan foydalanish sinflarining maydoni o‘zgarishini Tuyamo‘yin suv omboriga kiradigan va tashlanadigan ko‘p yillik suv oqimi dinamikasiga bog‘ladik va natijalar 14-rasmda keltirilgan.



14-rasm. Amudaryo quyi deltasining yerdan foydalanish sinflarining maydoni o‘zgarishini Tuyamo‘yin suv omboriga kiradigan va tashlanadigan suv oqimi dinamikasiga bog‘liqlik grafigi

Yuqoridagi grafikdan ko‘rinib turibdiki, Tuyamo‘yin suv omboriga kiruvchi oqim dinamikasi yer usti suv resurslari egallagan maydonlari hamda ekin maydonlari o‘zgarishiga yuqori ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatdi ($R > 0.50$). Shu bilan birga mazkur kiruvchi suv oqimi dinamikasi yaylovli hududlar va botqoqlashgan maydonlar o‘zgarishiga ham o‘rtacha-ijobiy tasnifda korrelyasiyalangan. Vaholanki, suv kirimi dinamikasi aholi yashash punktlari hududi va ochiq tuproqli maydonlarni o‘zgarishiga kuchsiz bog‘liqlikni ko‘rsatdi.

Tuyamo‘yin suv omboridan tashlama suvlar dinamikasi yer usti suv resurslari egallagan maydonlari hamda ekin maydonlari o‘zgarishiga o‘rtacha- salbiy holatda korrelyasiyalanganini ko‘rsatdi. Mazkur tashlama suv oqimi dinamikasi faqat ochiq tuproqli maydonlarning o‘zgarishi holatiga kuchli bog‘liqligi isbotlandi ($R = 0.53$). Suv tashlama dinamikasi aholi yashash punktlari hududi, yaylovzorlar hamda botqoqlashgan maydonlarni o‘zgarishiga kuchsiz bog‘liqlikni ko‘rsatdi.

Shu jumladan ta’kidlash joizki, o‘rganilgan tadqiqot ob’ektida ochiq tuproqli maydonlarni kengayishi yer usti suv resurslari maydonlari, yaylovlar, ekin maydonlari hamda botqoqlashgan hududlarni qisqarishiga olib keladi. Aksincha, yer usti suv resurslarni maydonini kattalashishi yaylovzorlarning va botqoqlashgan hududlarning kengayishiga kuchli ta’sir o‘tkazadi.

Yerdan foydalanish hamda yashillik (biomassa) xaritasini tuzishda Normalized Difference Vegetation Index (NDVI) dan foydalanildi.

NDVI qiymatlari quyidagicha hisoblandi:

$$NDVI = \frac{NIR - RED}{NIR + RED}$$


Bu yerda: NIR (near infrared band) - infraqizil nurlariga yaqin qatlam; RED (red band) - qizil qatlam.

Amudaryo quyi deltasidagi NDVI ni konvertatsiya qilish orqali LAI yordamida biomassaning tarqalish xaritalari tuzildi (15-rasm). Yashillik (biomassa) xaritalarini qilishdagi asosiy ko‘rsatkich hisoblangan Barg maydoni indeksini (Leaf Area Index – LAI) NDVI bilan bog‘laydigan tenglama mavjud:

$$LAI = 0,57 \times e(2,33 \times NDVI)$$

NDVI va LAI ni aniqlash uchun fotosyomkani kech bahor va yaqin yozda (May- Iyun) o‘tkazgan ma’qul – bu paytda daraxtlar va o‘tlar eng yuqori darajada yashillikka ega bo‘ladi.

O‘zbekistonning tipik qurg‘oqchil yerlarida ko‘p yillik havo harorati, EQO‘, LAI va ET ko‘p omilli tahlillari natijasida Amudaryo quyi deltasi ekotizimini tiklash uchun o‘simliklar zichligi oshishi va ochiq tuproqning yaylovlarga aylanishini aniqlandi. LAI ga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.



15-rasm. Amudaryo quyi deltasi (Qoraqalpog'iston) hududining 2001- 2021 yillardagi LAI xaritasi

Geoaxborot tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan yerdan foydalanish va yer qoplami xaritalari Amudaryo quyi deltasi gidrologik oqimi va biomassa o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga yordam berdi. 3.3- bo'limda muhokama qilingan IHA modeli natijalari shuni ko'rsatganki, ekologik oqim suv, biomassa va botqoq hududlarning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Yuqori oqimlar soni kamaygani sababli, suv tashish qobiliyati pasayib, yaylovlar va botqoq hududlarning yo'qolishiga olib kelmoqda, bu esa biomassa hosildorligini sezilarli darajada kamaytirmoqda.

XULOSALAR

"Iqlim o'zgarishi sharoitida Amudaryo quyi qismi uchun ekologik oqimni baholash" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etilgan:

1. Nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, suv resurslarini boshqarishda ayniqsa daryo havzalarida suv miqdorini taqsimotida daryoning quyi qismlarida ekotizimlarni saqlab qolishda ekologik oqimni inobatga olish muhim hisoblangan;

2. Olib borilgan tadqiqotlar tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Qoraqalpog'iston Respublikasining qishloq xo'jaligini 90% lik maqbul suv limitini ta'minlash uchun Amudaryo quyi deltasi hududiga tushadigan oqim miqdori 60% dan kam bo'lmasligi kerak deb hisoblab chiqilgan. IHA modelini simulyasiya qilish orqali olingan natijalarga qo'shimcha ravishda, suv taqsimotini maqbul ravishda ta'minlash uchun amaliyotda natijalarni joriy qilishda kamida 60% lik oqim miqdorini ta'minlash zarurligi isbotlangan;

3. Ko'p yillik iqlim ma'lumotlari tahlili yuqorilovchi o'zgarishlarni ko'rsatib, 0 qiymatga tushgan oylardagi to'g'ri chiziq dinamikasi biroz keskinroq ko'rinish bergan. Har bir iqlim grafigining yuqori qismiga birlashtirilgan o'rtacha qiymat va standart og'ish qiymatlari Amudaryoning quyi deltasida qayd etilgan ko'p yillik

iqlim ma'lumotlari va o'zgarishlar dinamikasida ekologik oqimni baholashda iqlim omillarining roli ahamiyatsiz ekanligini ko'rsatgan;

4. ET_0 ni baholashda o'simlik qoplami indeksining (LAI) bevosita ta'siri mavjud emasligini ko'rsatgan. Lekin Qoraqalpog'iston Respublikasi erdan foydalanish tasniflariga binoan LAI ning kengayishi bilvosita ET_0 tezligini asta-sekin tezlashgani aniqlangan. ($R = \sim 0,6$). Bu esa o'z navbatida biomassaning suvga bo'lgan talabning oshishiga olib kelishi isbotlangan;

5. Tuyamo'yin suv ombori va uning gidrouzelidan suv chiqarish miqdori yildan - yilga dinamik tus olgan va so'nggi 10 yil ichida biroz barqarorlashganligini ko'rishimiz mumkin. Maksimal suv chiqarish qiymati 2005 yilga to'g'ri keldi va o'rtacha $1520 \text{ m}^3/\text{sek}$ ni tashkil etgan, shu jumladan 2001 yilda kuzatilgan minimal oqim, taxminan $420 \text{ m}^3/\text{sek}$ ni hosil qilgan;

6. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda, xususan 2015-2020-yillarda Amudaryo qo'yi oqimi $250-300 \text{ m}^3/\text{s}$ ga tushib ketgan. Bunga sabab ekinlarni sug'orish va inson faoliyatiga yo'naltirilgan suv taqsimoti ortib borayotganini anglatadi. Havzada ekologik oqim barqarorlikni ta'minlash uchun Amudaryo quyi deltasida minimal ekologik oqim $350-400 \text{ m}^3/\text{s}$ bo'lishi hisoblab chiqilgan;

7. Amudaryo quyi qismida kam suvlilik $250 \text{ m}^3/\text{s}$ dan past bo'lgan davrlarda (kam oqim) biomassaning keskin pasayishi kuzatildi ($R > 0,6$). Natijada NDVI va LAI (biomassa qoplami) qiymatlari 2001-yilda $1.5-2.5 \text{ m}^2/\text{m}^2$ ni va 2021- yilda $0.5 \text{ m}^2/\text{m}^2$ dan pastga tushib ketgan. Bu esa o'simlik qoplaminin keskin degradatsiyaga uchraganini ko'rsatadi. Namlik tanqisligi 27400 km^2 yaylov erlarining cho'lga aylanishiga sabab bo'lgan;

8. Amudaryo qo'yi qismida o'rtacha suvlilikning $350-500 \text{ m}^3/\text{s}$ atrofida bo'lgan davrlarda (o'rtacha oqim), ekin maydonlari va botqoq hududlarda biomassa hosildorligi yaxshilanganini kuzatilgan. Natijada LAI qiymatlari $4.5-5.1 \text{ m}^2/\text{m}^2$ ga va bu esa o'simliklarning tiklanayotganini ko'rsatgan. SHu davrda NDVI qiymatlari 0.6 dan yuqori bo'lib, o'simliklar qoplaminin zichligi oshgan.

9. Amudaryo qo'yi qismida maksimal suvlilikda oqim $700 \text{ m}^3/\text{s}$ dan ortiq bo'lgan sharoitda, botqoq hududlarda va yaylovlarda biomassaning sezilarli o'sishi kuzatildi. 1993 va 2005-yillardagi yuqori oqim paytida LAI qiymatlari $5.5-6.0 \text{ m}^2/\text{m}^2$ ga etgan, bu esa to'qayzorlar va tabiiy yaylovlarning tiklanishiga yordam bergan. Biroq, 2005-yilda $4500 \text{ m}^3/\text{s}$ dan ortiq suv toshqinlari biomassaga salbiy ta'sir o'tkazib, tuproq sho'rlanishini oshirgan va ekin maydonlarining suv bilan to'yinib qolishiga sabab bo'lgan. Bu yuqori oqimning ijobiy va salbiy ta'sirlarini hisobga olib, ekologik oqimni muvozanatli boshqarish kerakligini ko'rsatgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.18/30.11.2022.Т.153.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ
СРЕДЫ И ПРИРОДООХРАННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**БУХАРСКИЙ ИНСТИТУТ УПРАВЛЕНИЯ ПРИРОДНЫХ
РЕСУРСОВ ПРИ НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ (НИУ) “ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ
ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО
ХОЗЯЙСТВА”**

МАХМУДОВА УМИДА ЗАКИРДЖАНОВНА

**ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СТОКА ДЛЯ НИЖНЕГО ТЕЧЕНИЯ
АМУДАРЬИ В УСЛОВИЯХ ИЗМЕНЕНИЕ КЛИМАТА**

**11.00.05 – Охрана окружающей среды и рациональное использование природных
ресурсов**

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD) по
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2024.3.PHD/T4994.

Диссертация выполнена в Бухарский институт управления природных ресурсов при ИИГУ "Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства".

Автореферат диссертации опубликован на трех (узбекском, русском, английском (резюме)) языках на веб-странице Научного совета (www.ecoilm.uz) и информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Исаев Сабиржон Хусанбаевич
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Официальные оппоненты:

Жулиев Мухиддин Комилович
доктор биологических наук, доцент

Унгалов Акмал Наврузович
доктор философии технических наук

Ведущая организация:

Ташкентский государственный аграрный университет

Защита диссертации состоится 22 08 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.18/30.11.2022.T.153.01 при Научно-исследовательском институте окружающей среды и природоохранных технологий (Адрес: 100043, г. Ташкент, ул. Бунёдкор, д. 7А. Тел.: (99871) 277-89-63, факс: 277-89-63, e-mail: eco_nii@umail.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института окружающей среды и природоохранных технологий (регистрационный номер 5). Адрес: 100043, г. Ташкент, ул. Бунёдкор, д. 7А. Тел.: (99871) 277- 89-63.

Автореферат диссертации разослан "22" 08 2025 года

(протокол реестра № ___ от "22" 08 2025 года).


Пудатов Б.А.
Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., доцент


Самиев Л.Н.
Ученый секретарь Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., доцент


Мурадов Ш.О.
Председатель научного семинара при Научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Экономное использование воды и применение современных методов и технологий для устойчивого поддержания речных экосистем в мире занимают одно из ведущих мест в обеспечении экологического стока. Учитывая, что в глобальном масштабе определено «...снижение ущерба природе от нерационального использования водных ресурсов и обеспечение производства большего количества сельскохозяйственной продукции», требуют реализации задачи эффективного использования земельных и водных ресурсов, совершенствования системы охраны окружающей среды и управления водными ресурсами, развития и модернизации водохозяйственных объектов. В этой связи актуальным является управление водными ресурсами с учетом экологических попусков, эффективное использование водно-энергетических ресурсов, разработка водо- и ресурсосберегающих технологий орошения, снижение ущерба, наносимого окружающей среде при использовании малых объемов водных ресурсов, повышение эффективности использования на основе применения методов, основанных на дистанционных исследованиях и геоинформационных технологиях.

Во всем мире проводятся исследования с целью разработки новых научных решений по водосбережению и ресурсосберегающим технологиям, которые позволят обеспечить экологический поток, одновременно защищая окружающую среду и поддерживая баланс экосистем. В этой связи, учет экологических потоков при управлении и эффективном использовании водных ресурсов, различные технологические решения, а также различные решения по распределению воды в речных бассейнах в условиях изменения климата рассматриваются в качестве приоритетных направлений с точки зрения экологии и охраны окружающей среды. В этой связи, принимая во внимание нарастающий дефицит водных ресурсов вследствие глобального изменения климата, роста численности населения и отраслей экономики, а также их возрастающую с каждым годом потребность в воде, особое внимание уделяется оценке экологического стока и обоснованию его влияния на биомассу растений по фазам роста.

В научно-исследовательских центрах нашей республики реализуются комплексные мероприятия по разработке, созданию и применению эффективных методов оценки на основе геоинформационных систем и методов дистанционного зондирования Земли, с использованием технологических подходов в области экологии и охраны окружающей среды и достигаются определенные результаты. В Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022 - 2026 годы определены важные задачи по «коренному реформированию системы управления водными ресурсами для обеспечения

¹Продовольственная и сельскохозяйственная организация Объединенных Наций (ФАО). <https://www.fao.org/sdg-progress-report/2020/en/>

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №ПФ-60 «О Стратегии развития Республики Узбекистан»

